

## **XITOIY ADABIYOTIDA DRAMANING JANR SIFATIDA TARAQQIYOTI**

**Komilova Shaxnoza Turobuddinovna.**

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti.

Shark mamlakatlari adabiyoti va qiyosiy adabiyotshunoslik kafedrası.

e-mail: [sh\\_muslima@inbox.ru](mailto:sh_muslima@inbox.ru)

Tel: (90)9597915

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqola doirasida o'zbek, yevropa va xitoy adabiyotid drama janrining paydo bo'lishi, rivojlanishigata'sir ko'rsatgan ichki va tashqi omillar ta'siri masalasi aks ettirilgan. Tadkilotchilar tomonidan olib borgan tadqiqotlar asosida xitoy dramaturgiyasi janrlarining yuzaga kelishida qadimiy hind madaniyatining keng yoyilishi sabablari xususida xam ma'lumotlar keltirildi. XIII-XIV asrlardailk xitoy dramaturgiyasida shakllangan "siven", "szatszyuy" janrlarining o'ziga xos jixatlari xususida, hamda shu bilan birga bu janrining rivojida o'z o'rniga ega dramaturglari Guan Xan Chin, Van Shi Fu, Bay Pu, Ma Ji Yuanva boshqalarning ijodi, dramatik asarlarixususida fikr yuritilgan. Maqolada janr nuqtaiy nazaridan XVII-XVIII asrlar kelib esa dramaturgiyada nomlari keltirilgan janrlar bilan birga "chuansi" janrining paydo bo'lishi va rivojlanishi, dramaturglar ijodi misolida yotirib berilgan.*

**Kalit so'zlar:** «nansiven» (南戏文), «szatszyuy» (杂剧), «chuansi» (传奇) sanskrit dramasi "Shariputraprakaran", "Kumaralata", "Shakuntala", Guan Xan Sin (关汉卿), Van Shi Fu (王实甫), Bay Pu (白朴), Ma Ji Yuan(马致远)

### **ABSTRACT**

*This article reflects the influence of internal and external factors that influenced the formation and development of the drama genre in Uzbek, European and Chinese literature. Also, based on the research conducted by the researchers, data were provided on the reasons for the widespread spread of ancient Indian culture in the origin of the genres of Chinese drama. A review of dramatic works is given about the peculiarities of the genres "xiwen", "zasyu", formed in ancient Chinese dramaturgy in the XIII-XIV centuries, as well as about the works of playwrights Guan Han Chin, Wang Shi Fu, Bai Pu, Ma Ji Yuan and others, who occupied a prominent place in the development of this genre. The article examines*

*the emergence and development of the genre of "chuansi", through the work of playwrights of the XVII-XVIII centuries.*

**Keywords:** "nansiven" (南戏文), "szaszyuy" (杂剧), Sanskrit drama, "Shariputrakarakar", "Kumaralata", Shakuntala, Guan Han Sin (关汉卿), Van Shi Fu (王实甫), Bai PU (白朴), Ma Ji Yuan (马致远)

### **АННОТАЦИЯ**

*В статье отражено влияние внутренних и внешних факторов, повлиявших на формирование и развитие драматического жанра в узбекской, европейской и китайской литературе. Также на основе проведенного исследователями исследования были предоставлены данные о причинах широкого распространения древнеиндийской культуры в зарождении жанров китайской драмы. Дан обзор драматических произведений об особенностях жанров «сивэнь», «засю», сформировавшихся в древнекитайской драматургии в XIII-XIV веках, а также о творчестве драматургов Гуань Хань Чин, Ван Ши Фу, Бай Пу, Ма Цзи Юань и другие, занявшие видное место в развитии этого жанра. В статье исследуется возникновение и развитие жанра «чуанси» в творчестве драматургов XVII-XVIII веков.*

**Ключевые слова:** «нансивен» (南戏文), «szaszyuy» (杂剧), санскритская драма, «Шарипутрапракаран», «Кумарата», Шакунтала, Гуан Хан Син (关汉卿), Ван Ши Фу (王实甫), Бай ПУ (白朴), Ма Цзи Юань (马致远)

### **KIRISH**

Xitoy xalq tomosha san'ati juda qadim zamonlarda vujudga kelgan va o'z taraqqiyoti davomida bulg'usi saxna ko'rinishlari uchun umumiy qonun va qoidalar sifatida xizmat qildi. Tan davri shoirlari Li Bo, Du Fular she'riyati, Li Gunszo, Yuan Chjen novellalari asosida, eng avvalo, o'z xalqiga, insonga bo'lgan muhabbatni o'z ifodasini topgan. Dramaturgiyada XIII-XIV asrlarda kelib yangi janrlarning paydo bo'lishi tufayli asarlarning ichki tuzilishlari biroz yengil shaklga keltirilgan bo'lsada, kuchli, teran mavzular ko'tarilgan. Albatta, XVII-XVIII asrlar kelib esa o'rta asr uslubidagi syujetlar, g'oyalar, xarakterlar davom etgan, lekin sekin-asta o'zlashtirish uslublariga qarshi kurash boshlangan edi.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Maqolani maqsadi xitoy adabiyotida dramaning janr sifatida taraqqiyotida ta'sir ko'rsatgan ichki va tashqi omillar, sanskrit drama va teatrining ta'sir masalalarini ochib berishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun xitoy adabiyotida

dramaturgiyaning paydo bo'lishi, rivojlanishi xususida aniq ma'lumotlarni keltirish, ilk dramatik janrlar, dramaturglar ijod namunalari, sankskrit dramasi ning ilk namunalarini sanab o'tish, janr sifatida taraqqiyotini yoritib berish kerak. Maqolada qo'yilgan maqsad va vazifalardan kelib chiqqan holda, madaniy – tarixiy, qiyosiy – tarixiy tahlil metodlaridan foydalanilgan.

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Dramaturgiya har bir xalq adabiy merosining ma'lum bir qismini tashkil etadi va har bir adabiy hodisa kabi o'zining ma'lum bir taraqqiyot bosqichlariga ega bo'ladi.

Ma'lumki drama va teatr bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan adabiy hodisalardir. “Drama” so'zi (yun. drama — harakat) aslida “harakat”, “harakat bilan ko'rsatilgan voqea”, ya'ni tomosha demakdir. Taniqli yunon mutafakkiri Aristotel ham o'zining “Poetika” asarida “Dramaning o'zi harakat, chunki harakat qiluvchi shaxslarni ekc ettiradi”<sup>1</sup> degan jumlasini bilan dramaning teatr san'atiga qanchalik bog'liq ekanligini ta'kidlab o'tgan.

Dramada inson voqea ustidan hukmron bo'lib, voqealar fonida turib rol ijro etadi. Dramaning qudratli hayotiy asoslaridan yana biri-insonning hayotidan olingan o'z taassurot va saboqlarini boshqalarga qo'rgazmali usulda berilishidir.<sup>2</sup> Drama — badiiy adabiyotning epos, lirika bilan bir qatorda 3 asosiy turidan biri. Syujetlilik, harakatlarning ziddiyatga asoslanishi va ularning sahna, epizodlarga bo'linishi, bayonning yo'qligi, personajlar munosabatlarining o'zaro so'zlashuvga asoslanishi dramaning o'ziga xos xususiyatidir. Ijtimoiy muammolarni aks ettiruvchi dramatik ziddiyatlar qaxramonlarning xatti-harakatlarida, avvalo dialog va monologlarda ifodalanadi. Dramatik janrlar, o'z navbatiga turlarga bo'linadi, ular: tragediya, komediya, drama (janr sifatida) va tragikomediya janrlari. Ma'rifatparvarlik davri (Didro<sup>3</sup>, Lessing<sup>4</sup>) dan boshlab drama badiiy adabiyotning yetakchi janrlaridan biriga aylangan. Unda insonning ziddiyatli hayoti ifodalanadi.

Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, har bir xalq adabiyoti va san'atining gullagan davrlari mavjud bo'lib, eramizdan avvalgi VIII-V asrlarda antik adabiyot, ya'ni grek adabiyoti yuksak rivoj topga davr bo'lgan. Bu davrda Gomer, Sofokl, Esxil kabi daholarning asarlari hozirgacha jahon xalqlari orasida ma'lum va mashhurdir. Undan keyin Rim adabiyotida rivojlanish kuzatiladi. XVI asrda ingliz adabiyotida Shekspir, Marlo, Grinn kabi buyuklarning ijodiyoti orqali dunyo

<sup>1</sup> Aristotel. “Poetika”. Toshkent. 1980y.

<sup>2</sup> Odilova N. Dramaturgiya asoslari. T.: 2008

<sup>3</sup> Didro Deni (Dider, Denis) 1713-1784 yil.-fransuz yozuvchi, faylasuf, tanqidchi, dramaturg

<sup>4</sup> Lessing Gotxold Efraim(1729-1781) – nemis ma'rifatparvari, san'atshunos, dramaturg, shoir, publitsist.

madaniyatida yangi ko'tarilish davri boshlandi. XVIII asrda Germaniyada Gyote, Shiller va bir qator adiblar orqali adabiyot va san'atning yuksalishi ko'zga tashlanadi. XIX asrda Fransuz adabiyotini Gyugo, Dyuma, Stendal, Flober, Mopassanlar kabi mashxurlar dunyoga tanitdilar.

Sharqda esa drama san'atining rivoji o'ziga xos xususiyatlarga egadir. Hindistonda melodning birinchi ming yillik davrida, Yaponiyada X-XI asrlarda, XIII-XIV asrlarda qadimiy sivilizatsiya markazlaridan biri hisoblangan Xitoyda drama janr sifatida to'liq shakllandi.

XIII asrda yashab ijod qilgan Xitoyning taniqli dramaturglari Guan Xan Chin (关汉卿), Van Shi Fu (王实甫), Bay Pu (白朴), Ma Ji Yuan(马致远) va boshqalarning dramatik asarlari hozirgi kunga qadar o'z qadr-qiyamatini yo'qotmagan. Bu nomlar bizni keyinchalik mumtoz degan nom olgan va xitoy madaniyati ravnaqi tarixida alohida o'rin tutgan, uning birmuncha demokratik janrlaridan bo'lgan xitoy dramaturgiya va teatrining o'sha davrdagi ravnaqi bilan bog'laydi. XIII asrda, mo'g'ul bosqinchilari tomonidan xitoy milliy san'ati qattiq ta'qib ostida bo'lgan bir davrda teatr va dramaturgiya yetakchi san'at turlaridan biri bo'lib qoldi. Mo'g'ullar xukumronligi davrida teatr o'ziga xos faoliyati bilan ozodlik g'oyalarning badiiy targ'ibotida birmuncha ta'sirchan vosita bo'lib xizmat qildi. Lekin, ilg'or g'oyalarning ommalashuvi xalq uchun yanada qulay va tushunarli badiiy shakllarni topishni talab qilar edi. Teatr san'ati manbaalari qadim-qadimlarga borib taqaladi. Insoniyat jamiyati ravnaqining birinchi bosqichida, xayvonlar va qushlar ovi inson uchun tiriklikning zaruriy omili bo'lgan bosqichda tabiatga va xayvonlarga sig'inish qaror topgan. Qadimgi Xitoyda xayvonlarga sig'inishning ilk shakllari o'yinlar va raqslarda o'z aksini topgan. Inson jamiyatining qadimgi davrida yuzaga kelgan raqslar bo'lg'usi saxnaviy xarakterlarning ilk elementlari bo'lib, qoyalarga ishlangan tasviriy suratlar bizgacha nafaqat «tovus va qoplon», «baliq va ajdarxo» raqslari tasvirida, balki turli liboslarda (tovus, qoplon, ajdarxo niqoblarini kiygan holda) raqsga tushayotganlarning suratlari yetib kelgan. Xitoy ko'chalari va maydonlarida bayramlarni «tovus», «ajdarxo» raqslari, «arslonlar kurashi» va boshqa shu kabi raslarni mumtoz davr raqs ustalari ijrosida ko'rish mumkin. Raqs san'atining o'ziga xosligi insonga nafis xarakterlar bilan o'z xis-tuyg'ularini ifodalash, turli siymolarni saxna ko'rinishlarini yaratish imkonini berdi.

Xitoy adabiyotida drama janri rivojida birinchi Xitoy pesasi aktyorlar tomonidan kichkinagina, lekin juda ham erkin formadagi, ya'ni «siven» (teatr matni) (戏文) yoki «nansiven» (南戏文) - «janubiy siven» (janubiy teatr matni) deb nomlangan janrlar yaratilgan. Bu janrlarning ayrim xususiyatlari hozirgi xitoy

janubiy teatri va dramalarida saqlanib qolgan, ya'ni qo'shiq kuylash (ariya), prozaik dialog va pantomimolarning (raqs) birga kelishi yaqqol ko'rinib turadi.

XIII-XIV asrlarda Yuan sulolasi xukumronligi davrida dramaning «siven» janri yangi «szatszyuy» (杂剧)<sup>5</sup> janriga aylantirildi. Bu dastavval Shimoliy Xitoyda paydo bo'lib, tez orada «siven»ni ikkinchi o'ringa tushirib qo'ydi va nafaqat shimolda, balki janubda ham rivojlana boshladi.

Xitoy xalqining ham ma'naviy olami vaqt o'tgan sari o'zgarib bordi. X-XIII asrlarga kelib san'at asarini tushunishga qodir tomoshabinlar soni ko'payib bordi va bunga, albatta, dramaturgiya va teatr san'ati sabab bo'ldi. San'atning aralash turi, ya'ni drama, musiqa, voizlik san'ati, ommaviy sig'inish marosimlari, xalq tomoshalari kabilar rivojlandi. Imperator saroyidagi oliy tabaqalar uchun mo'ljallangan sahna tomoshalariga ham zarurat paydo bo'ldi. Xitoy dramaturgiyasining rivoji ham ayni shu davrga to'g'ri keldi.

Xitoy dramatik janrlarining paydo bo'lishi masalasida adabiyotshunos olimlar o'z tadqiqotlarida xitoy dramaturgiyasi janrlarining yuzaga kelishida qadimiy hind madaniyatining Xitoyda keng yoyilishi sabab bo'ldi, degan fikrlarni ilgari surdilar. Ushbu masalada XX asr boshlariga kelib yozuvchi Chjen Chjendo va Syuy Dishanlar tomonidan bir qator izlanishlar olib borilgan.

Ilk bor adabiyotshunos, yozuvchi Syuy Dishan 许地山 1925 yilda Kembridjda tahsil olib yurgan kezlarda o'zining "Hind dramasi uslubini va uning Xitoy dramasi uchun oid tafsilotlari" nomli maqolasida ayni shu masalani ko'tarib chiqqan, edi. Adibning ilmiy tadqiqotlari bir qator muammolarni qamrab olgan, jumladan, qiyosiy adabiyotshunoslik, Hindiston va Xitoy madaniy aloqalari tarixi va xorij madaniyatining Xitoy adabiyotiga ta'siri kabilar. Syuy Dishan Xitoy dramaturgiyasining paydo bo'lishi Sharqiy Turkiston xududlariga buddizmning Maxayana maktabi ta'limotlarining kirib kelishi bilan bog'liq, deb hisoblaydi. U yana shuni ta'kidlaydiki, meloddan avvalgi ikkinchi asrda sanskrit dramasi Maxayana buddizmi bilan bir vaqtda shakllangan bo'lib, ayni shu davrda Xan sulolasida ham Maxayana maktabi ta'limoti keng tarqalgan. (er. avv. 206.—er. 220y.) .

1911 yilda nemis olimi Genrix Lyuders<sup>6</sup> ning arxeologik ishlari orqali Sharqiy Turkiston xududlarida sanskrit dramasi qo'lyozma nusxalari topiladi. Bularning hammasi Germaniyaning Berlin shahridagi nashriyotda nashr etiladi. Bular orasida Asvaxoshaning "Shariputrprakaran" dramasi, Kalpanamanditikaning

<sup>5</sup>. "Szatszyuy" (杂剧) janrida biror bir syujet xikoya kilinadi. Xikoya ariya va rakslar bilan bir aktyor tomonidan ijro etilgan.

<sup>6</sup> Genrix Lyuders(1869-1943)-Sharqshunos-xindshunos. Sharq adabiyoti bo'yicha muxbirlar a'zosi (Xindshunoslik)



“Kumaralata” dramalari va uchta nomi nomalum matnlar topilgan. Bu dramalar Guptalar davrida hind braxmanlari tomonidan yozilgan manbalar hisoblanadi.

“Shariputrakaran” Xitoy xududlarida topilgan eng qadimgi asarlardan biri hisoblanadi. Drama matni buddizm asoschisi Gautama Shakyamuni Shariputra va Maudgalayan xayotiga bag‘ishlangan. Shu tariqa Xitoyga kirib kelgan birinchi dramatik asar buddizm adabiyoti motivlari asosida yozilgan edi va bu o‘sha davridayoq xitoy tiliga tarjima kilingan.

Keyingi topilma sanskrit dramasi Xitoyda keng yoyilishiga ta’sir etgan asar nataka janrida yozilgan “Maytrisimiti” matni hisoblanadi. Matn to‘xtar tilida yozilgan. Keyinchalik ilk bor uyg‘ur tiliga va xitoy tillariga tarjima qilingan. Drama matni yozilishi eramizning V-VI asrlariga to‘g‘ri keladi deb tahmin qilinadi. Topilgan matn 293 betdan iborat bo‘lib, ma’lumotlarga ko‘ra markaziy Osiyo va Xitoyda buddizmning yanada keng yoyilishiga ta’sir ko‘rsatgan, deyiladi.

Drama syujeti quyidagicha: 120 yoshli braxman Senboboli tushida osmon ruxini ko‘radi, rux Senboboliga buddizm asoschisi Gautam Shakyamuni xokini olish uchun borishi kerakligini aytadi. Senboboli juda keksayib qolganligi tufayli borolmasligini tushunib braxman Maytrei va uning 16 ta shogirdini taklif etadi. Braxman Maytreiga ruhiy ozodlikka erishish uchun Buddha tanasining o‘ttiz ikki sifatini tan olish kerakligini aytadi. Shu tariqa Maytrei juda ko‘p joylarda bo‘ladi, faqatgina buddizm asoschisi Gautam Shakyamunini uchratganidagina Buddha ruhiyatining o‘ttiz ikki sifatini ko‘radi va buddizm yo‘lini tanlaydi.<sup>7</sup> Xitoyda aynan mana shu pesa syujeti asosida yozilgan szyuyben janridagi ilk pesa topilgan.

Shu tariqa eramizning I-VII asrlarda “Buyuk ipak yo‘li” orqali Maxayana buddizmi keng yoyilishiga va xitoy xalqining hind dramaturgiyasi an’analari bilan tanishish imkonini berdi. Lekin, VIII asrda arablarning "Buyuk Ipak yo‘li" ni bosib olishi tufayli Xitoyning Hindiston bilan aloqalari deyarli yo‘qolgan.<sup>8</sup>

Sin sulolasi davriga kelib Xitoyda ilk chjugundiyao i szatszyuy nomli dramatik janrlar rivojlandi va bu xitoy xalqiga hind dramaturgiyasi bilan yana qayta tanishish imkoniyatini yaratdi. Bu esa hind madaniyati hamda hind buddaviylik dramaturgiyasining xitoyda keng yoyilishiga Sharqiy Turkistonda dramaning rivojlanib borishi bilan izoxlab beriladi. Bunga xitoylik tadqiqotchi Lyao Ben

<sup>7</sup>. Bu matning ilk tarixini Gen Shimin 耿世民 o‘rganib chiqadi va o‘zining “Maytrisimiti dramasi qadimgi uyg‘ur tilida” nomli maqolasida keltirib o‘tadi. (古代维吾尔语说唱文学"弥勒会见记"), xamda bu dramaning xitoy va uyg‘ur adabiyotiningda dramaning paydo bo‘lishi va rivojida o‘rni haqida aytib o‘tadi.

<sup>8</sup> 751yilda Arab armiyasi tomonidan Sharqiy Turkiston hududida Tang imperiyasi qo‘shinlari (618-907) mag‘lubiyatga uchradi, shuning uchun Hindiston bilan bir qator madaniy aloqalar yo‘qoladi

“Sanskrit dramasi dan sutzyan dramasi ga”<sup>9</sup> nomli maqolasida buddizm ta’sirida Xitoyda paydo bo’lgan ilk dramani kuydagicha sxema orqali izoxlaydi: Sanskrit-toxar tili-uyg’ur tili-xitoy tili. Ushbu maqola ham, bizga, xitoy dramasi rivojliga sanskrit dramaturgiyasining ta’siri o’zgacha bo’lganligini ko’rsatadi.

Yana bir adabiyotshunos olim Jen Jendo o’z izlanishlarida aynan sanskrit dramaturgiyasi va teatrining Xitoy dramasi ga ta’siri xususida to’xtalib o’tgan. Uning ta’kidlashicha, sanskrit tilidagi “Shakuntala” dramasi ning qo’lyozma nus’hasi Tyantay tog’ida joylashgan ibodatxonadan topilganligi, shuningdek, chuansi<sup>10</sup> nomi bilan hind teatri xarakterlarini o’zida mujassam etgan boshqa qo’lyozmalar topilganligini ham aytib o’tadi. Bularning barchasi qadimgi Hindistonning sanskrit tilida rivojlangan dramaturgiyasi Xitoy dramaturgiyasi rivojiga haqiqatan ham katta ta’sir ko’rsatganini isbotlaydi.

Xitoy dramasi ning ushbu janri juda murakkab bo’lib, o’zigi xos xususiyatlarga ega: «szatszyuy» janrida yozilgan asarlar 4 aktdan iborat bo’lib, undagi ariyalar asosiy personajlar tomonidan kuylanadi, qolganlar esa (prozaik) nasriy dialoglarda ishtirok etadilar, xar bir akt bir-biriga o’tuvchi qofiyaga ega bo’lib, musiqasi ham murakkab bo’lgan. Ariyalarni kuylashda mumtoz she’riyat namunalaridan foydalanilgan. «Szatszyuy»da xar bir aktdagi ariyalar ma’lum bir tartibda terilgan va yagona ohangga birlashib umumiy holda 12-14 akti tashkil etgan. Dramaning mana shu o’ziga xos xususiyati muallifdan katta mahorat talab qilgan, shu sababli bu janrdagi asarlar faqatgina malakali mualliflar tomonidagina yaratilgan.

«Szatszyuy» janrida ijod qilgan mualliflarning asarlari jamiyatning yuqori tabaqalariga bag’ishlangan va u til jihatdan ham murakkab bo’lib, oddiy xalq uchun buni tushunish qiyinchilik tug’dirgan. Bu davrda yozilgan nafaqat dramatik asarlar, balki nasriy, nazmiy asarlarning barchasi “venyan” tilida yozilgan edi.

Yuan<sup>11</sup> sulolasi davriga kelib Xitoy dramaturgiyasi va teatrining rivojlanshiga sabab aynan davr muhiti bo’lgan. Mo’g’ullar tomonidan Xitoyning bosib olinishi tufayli teatr targ’ibot manbai bo’lib qoldi. Yuan xukumatida Xitoy xalqi tazyiq ostida bo’lganligi sababli san’at sohasi vakillari birlashib “yozuvchilar uyushmasi”ga (书

<sup>9</sup> www.synologia.ru

<sup>10</sup> Chuansi (so’zma so’z. - ajoyib voqea) - 14 - 17-asrlarda keng tarqalgan drama janri. U 12 - 14-asrlar janubiy dramasi (Yuan dramasi) ta’siri asosida paydo bo’lgan. Boshqa xitoy mumtoz xitoy dramalari qatori chuansining dramalari. dialoglar, ariyalar va deklamatsiyalarni o’z ichiga oladi. Bu janr quydagicha tavsiflanadi: ko’p aktli (40 - 100 akt), janubiy kuylardan foydalanish, (ayrim chuansilar shimoliy kuylarni o’z ichiga oladi).

<sup>11</sup> XII asrda xitoy xududida 4 ta podshoxlik mavjud bo’lib, yagona xitoyga birlashmagan edi. XIII asr boshlarida xitoy mo’g’ullar bosqichi xav solgan edi. 1210 yilda Szin (1234 y.), keyin Sun (1276 y), podsholigi bosib oldi, 1280 yilga kelib xitoy mo’g’ullar xukumronligiga o’tadi. Mo’g’ullar xitoy Yuan sulolasi xukumronligini o’rnatadi.

会)<sup>12</sup> (teatr soʻzi nega tashqarida yoki olib tashlang) birlashadilar va dramaturgiyani targʻibot uchun eng maqbul janr deb hisoblaydilar, natijada bu davrda juda koʻp dramatik asarlar yaratiladi, shu bilan bir qatorda “Kitob jamiyati” tomonidan xalq uchun juda koʻp kitoblar nashr etiladi. Bugungi kunda XIII–XIV asrlarda turli janrlarda yaratilgan 750ga yaqin xitoy adabiyotining sara namunalari yetib kelgan va ular orasida «Toʻrt buyuk yuan dramaturgi» («元曲四大家») nomini olgan dramaturglarning kam sonli boʻlsada dramatik asarlari yetib kelgan.<sup>13</sup>

«Szatszyuy» janrida ijod qilgan mualliflardan biri dramaturg Guan Xan Chin (关汉卿)<sup>14</sup> xaqida maʼlumotlar kam. Biroq zamonaviy tadqiqotchilarning fikriga koʻra, bu dramaturg asarlarining gʻoyaviy mazmuni deyarli bir-biriga yaqin boʻlib, ularda oʻsha davr xukumron sinfnig kirdikorlari va xitoy xalqining zolimlarga qarshi kurashi yoritib berilgan. Dramaturg xalq orasidan olingan eʼtiborga loyiq bir qator obrazlar va xarakterlar yaratgan. Masalan: kuchli, irodali Dou E; lashkarboshi Gaun Yuy va Chjan Fey obrazi; qaxramon ayol Min Lyan, Van Chjao-sun obrazlari shular jumlasidandir. Adibning bizgacha yetib kelgan asarlarini xitoyning anʼanaviy turkumlashiga koʻra uch sinfga ajratish mumkin: fuqaroliq, lirik va tarixiy qahramonlik. Adibning “Xanchjou ponaramasi” nomli ilk dramasi negizida moʻgʻullar tomonidan Sun sulolasini zabt etilganligi bayon etilgan. Dramaturgning faoliyati xalq tomonidan “Nok bogʻi rahbari” va “Dramaturgiya otasi” kabi taʼriflar bilan olqishlangan.

XIII-XIV asrlarda aynan oqsuyaklar repertuari ham yaratiladi. Undan koʻpincha shaharning quyi tabaqalaridan chiqqan qahramonlarga bagʻishlangan maishiy komediyalar oʻrin olgan. Chunonchi, Guan Xan Sinning «Chjao Paner sevgi oʻyinini oʻynab baxtsiz nikohdan qutqarib qolganligi xaqida» gi pesada asosiy qaxramonlar - qoʻshiqchi ayollardir. Bu asarda jiddiy masalalar aks ettirilgan boʻlib, ularda komediya bilan fojea bilan aralash ifodalangan. Bu yerda hech qanday haqxuquqqa ega boʻlmagan getera va boy savdogar oʻrtasidagi konflikt (nizo) yetakchi oʻringa olib chiqilgan. Biroq komediyaning asosiy gʻoyasi «ayollar makri» emas, balki asarga lirik nafasni olib kirgan sevgidir. Asardagi ayollarning xar biri oʻz

<sup>12</sup> Jukoves, V. V. Belorussko-kitayskiy kulturniy dialog (II): istoriya, sovremennoye sostoyaniye, perspektivi: sbornik nauchnix statey. Minsk. 2016

<sup>13</sup> Bo Pu («Chinorlarda yomgʻir» – «[槽雨](#)»), Guan Xan-Chin («Dou E qasosi» – «[窦娥](#)»), Ma Chji-yuan («Xan saroiyda kuz» – «[浣衣](#)») i Chjen Guan-szu («[Syan-puyy qalbidan yiroqda](#)» – «[倩女魂](#)»)

<sup>14</sup> Гуань Хан Син (关汉卿, *Guān Hàncīng*; [1210](#)—[1280](#)) — XIII аср хитой драматургиясининг [пэцзэюй](#) жанрининг асосчиларидан бири. Гуан Хан Чин хитой адабий манбааларда маълум бўлишича 50 ортик шеърлари, 70 га яқин драма асарлар яратганлардан 18 таси бизгача етиб келган. Уларнинг кўп қисми ижтимоий муаммолар акс этган. “Доу Э қасоси”, “Сўнаётган капалак туши”, “Дарё бўйидаги шийпонча” шулар жумласидан.



kasbini tashlashni va ularni o‘z uyiga (xotin) umr yo‘ldosh sifatida olib kiradigan qahramon bilan uchrashishni orzu qiladilar. Lekin, ishqiy sarguzashtlarda ularning xarakteridagi tafovut oydinlashib boradi. Guan Xan Chin o‘z qahramonlarining tashqi ko‘rinishini tasvirlashdan ularning ichki dunyosini tahlil etishga o‘tganligini ta’kidlaydi. «Kuyi tabaqa» vakili bo‘lgan inson obrazini yaratish normativlari bo‘lmagan paytda muallif uni o‘zi qanday tasavvur etsa, shunday qilib yaratishi mumkin va buning oqibatida to‘qima qaxramon paydo bo‘lgan.

Bu davr dramaturgiyasining rivoji xaqida so‘z ketar ekan, albatta, taniqli dramaturglar Ma Chjiyuan<sup>15</sup>, Van Shifu<sup>16</sup>, Bai Pu<sup>17</sup> lar katta yutuqlarga erishganlar. Ma Chji Yuanning eng mashhur pesasi “Xan saroyida kuz” deb nomlanib, Yuan davri dramaturgiyasining ishqiy-tarixiy mavzuda yaratilgan mashxur asarlaridan biri xisoblanadi. “Qutirgan Chjen” va “Yuan minorasi” pesalarida dramaturg daosizm qarashlarini ifodalashga xarakat qilgan va mifologik syujetlardan foydalangan.

Dramaturg Vang Shifuning eng mashxur asari – “G‘arbiy fligel”» (西廂记), Tan davrining mashxur shoirlaridan biri Yuan Chjening (799—831)ning “Ing-Ing xaqidagi qissa” novellasining syujetidan foydalanilgan. Vang Shifuning “G‘arbiy fligel” dramasi xuddi shu syujetli boshqa turli asarlarga asos bo‘lgan. Uning bu dramasida (20 pardali) mo‘g‘ullar davridagi isyonchilik kayfiyati aks etgan va unda buddistlar ustidan kinoya ham yangraydi. Qaxramonlarning, ayniqsa, In Inning xarakteri murakkablashtiriladi. Bu asarda XIII – XIV asrlar dramaturgiyasining eng muxim qirralaridan biri – qaxramonning ichki dunyosi, uning xis-tuyg‘ulariga alohida urg‘u berilgan. Insonning shaxsiy xayotiga diqqat e‘tiborni qaratish imkonini beruvchi asarlar boshqa dramaturglarda ham mavjud. Bu asarlarda konflikt ijobiy qaxramonlar g‘alaba qozonishi yoki kurashayotgan tomonlarni yarashtirish bilan o‘z yechimini topadi. Dramaturg Bay Puning «Kuz tunida Syuanszun chinordagi yomg‘ir qayg‘uga soladi» nomli drama fojeasi tarixiy syujet – imperator Syuanszunning juda yaxshi xukmron bo‘lgani va to‘satdan uning taxtdan qulashi

<sup>15</sup> Ma Chjiyuan (马致远) (taxminan 1250 —1324 yillar) — mashxur yuan dramaturg, shoirlaridan biri (szatszyuy janra pesalar va syuy janri she‘rlar muallifi). Pekinda tavallud topgan. «Yuanchjen kitob jamiyatining» a‘zolaridan biri edi. asosan “szatszyuy” janrida 13 ta pesa yaratgan bo‘lib, undan bizgacha 7 tasi yetib kelgan, shoir sifatida tabiat manzaralari xamda ishqiy lirik she‘rlar yozgan. Bizgacha shoirning 120 ta chu (曲) janrida yozgan she‘rlari yetib kelgan.

<sup>16</sup> Vang Shifu (王实甫) Xitoy dramaturgi, XIII – XIV asrlarda yashab ijod qilgan. Dadu shaxri (hozirgi Pekin shaxridan) dan bo‘lib, xaqiqiy ismi - De Xin bo‘lib, Shifu taxallusi bilan ijod qilgan. U 14 pesasidan 3 tasi to‘liq saqlanib qolgan, 2 tasi esa qismlarga bo‘lingan xolda yetib kelgan.

<sup>17</sup> Bai Pu (白朴) -taxallusi Taisu bo‘lib, 1226 yilda hozirgi Shansi provinsiyasida tug‘ilgan. U yoshlik davrlaridanoq Sin sulolasining (1115-1234) tanazzulga uchraganini guvohi bo‘ladi. Ijod namunalari: “Samoviy nay” nomli “si” janridagi she‘riy to‘plami mavjud, “Chu” (曲) janrida ham 37 ta she‘r yozib qoldirgan, 20 ga yaqin she‘rlari rus tiliga tarjima qilingan, szatszyuy janrida 16 ta pesa yaratgan, ulardan faqat 3 tasi yetib kelgan: “Chinorlar yomg‘iri”, “Sharqiy devor tarixi”, “To‘siq yonidagi arg‘umchoq” (komediya janrida)

asosiga qurilgan bo‘lib, bu syujet qator shoirlarni xam diqqatini o‘ziga jalb etgan. Voqealarni Tan davrining taniqli shoirlaridan biri Du Fu fosh etish, qoralash nuqtai nazaridan tasvirlagan. (jumladan, «Go‘zallar», «Xarbiy arava» poemala). Shoir Bo Szyuyi ham boshqa adiblar kabi fosh etish, ayblash mavzulariga murojaat etgan («Ko‘li singan chol» she‘ri), lekin «Boqiy qayg‘u xaqida qo‘shiq» asarida u diqqat e‘tiborini lirikaga jamlaydi. Tiklanish davrining shoiri sifatida Bo Szyuyi poemada bir muammo - hissiy sevgi muammosini o‘rtaga tashlaydi. Sevgi nafaqat zaif ayolni, balki Syuanszunning qalbini ham zabt etib, o‘ziga uni bo‘ysundirganini ochib berarkan, Bo Szyuyi xukmron shaxsda ham insoniylik xislati borligini ko‘rsatib beradi. XIII – XIV asrlarda syujet shakllanib bo‘lgan bo‘lib, u turli tomondan yoritib berilgan. Biroq bu motivlarni dramatik planda talqin etar ekan, dramaturg Bay Pu shoir Bo Szyuyi bosib o‘tgan yo‘ldan bormadi. Bay Pu Syuanszunni monarx sifatida obro‘cini ketkizib, uni inson sifatida ulug‘laydi va An Lushanning qo‘pol kuchi va makri ustidan Syuanszunning oliyjanob xis-tuyg‘ulari g‘alaba qozonadi. Sevgi hissi bilan boyitilgan ichki dunyoni tasvirlashda dramaturg Tiklanish davri an‘analarini rivojlantira borgan. Burch va his-tuyg‘u o‘rtasidagi ichki konfliktni aks ettirishda Bay Pu o‘z davrining unchalik ko‘p bo‘lmagan novatorlaridan biri bo‘lib chiqdi. Shunday qilib, XIII – XIV asrlar oralig‘ida Xitoyda dramaturgiya o‘zining barcha asosiy janrlari: komediya, fojia va dramaga ega bo‘ldi.

XV asrga kelib «szatszyuy» janri sekin-asta o‘z xususiyatini yo‘qota bordi va uning o‘rnini «chuansi» (传奇)<sup>18</sup> janri egalladi. «Chuansi» janrining shakli avval aytib o‘tilgan «siven» shaklining davomi edi, lekin «chuansi» o‘zining ayrim jihatlari bilan farq qiladi. Min<sup>19</sup> davridagi mualliflar bu janrga ko‘proq marojaat etganlar.

XVII-XVIII asrlar xitoy adabiyotini o‘rgangan rus tadqiqotchilari V.M.Alekseyev<sup>20</sup>, O.L.Fishman<sup>21</sup>, N.T.Fedorenko<sup>22</sup> va boshqalarni asosan nasr,

<sup>18</sup> «Chuansi» 传奇 pesalarida voqea va xodisalar ko‘payib, ular kengroq yoritila boshlangan. «Chuansi» deyarli «szatszyuy»ga nisbatan erkinroq tarzda edi.

<sup>19</sup> 1368 yilda Yuan sulolasi barxam topganidan keyin mamlakatda xalq qo‘zg‘aloni oqibatidan Min sulolasi xukumronligini o‘rnatadi, 16 ta imperatorlar tomonidan 276 yil xukumronligi davom etadi. 1644 yilda manbjurlar tomonidan sulola xukumronligiga barxam beriladi.

<sup>20</sup> Alekseyev V.M.-(1881-1951)-xitoyshunos, filolog, xitoy mumtoz asarlari tarjimoni. Kitayskaya iyeroglificheskaya pismennost i yee latinizatsiya. — L.:1932; V starom Kitaye. Dnevnik puteshestviy.1907 g. M. 1958; Kitayskaya literatura. Nauka, 1978; Nauka o Vostoke: stati i dokumenti. M.,1982; Trudi po kitayskoy literature. Kn. 1-2. M., 2002, Shedevri kitayskoy klassicheskoy prozi v perevodax akademika V. M. Alekseyeva: V 2 kn. M., 2006.kabi kitoblar muallifi

<sup>21</sup> Fishman.O.L (1919—1986) — xitoyshunos, tarjimon, adabiyotshunos . Perevod, poslesloviye i primechaniya v kn.: Tanskiye novelli. M.: 1955; Li Bo. Jizn i tvorchestvo. M.: 1958; Kitayskiy satiricheskiy roman. (Epoxa Prosvesheniya). M.: Nauka, 1966; Tri kitayskix novellista XVII—XVIII vv.: Pu Sunlin, Szi Yun i Yuan Mey. M., 1980; Kitay v Yevrope: mif i realnost (XIII—XVIII vv.). SPb., 2003.kabi adabiyotlar muallifi

<sup>22</sup> Fedorenko N.T. (1912- 2000) — professor, sharqshunos, davlat arbobi; Velikiy kitayskiy pisatel Lu Sin. M., Znaniye. 1953; Ocherki sovremennoy kitayskoy literaturi. M., Goslitizdat. 1953; Mao Dun. M., Znaniye. 1956; Kitayskaya

chunonchi: Pu Sunlinning mashxur novellalari, birinchi xitoy ma'rifiy romani sifatida tan olingan U Szin-szining «Konfutsiychilarning norasmiy tarixi» deb nomlangan satirik asari ko'proq qiziqtirgan. Ushbu davr dramasi to'g'risidagi masala ko'tarilgan rus tilidagi kam sonli tadqiqotlar orasida B.L.Rifinning «Xitoy dramasi nazariyasi(XII asr - XVII asr boshlari)» nomli maqolasini qayd etish mumkin. Vaxolanki, XVII asr dramaturgiyasining iste'dodli vakillari soni anchagina bo'lib, ularning asarlari teran mazmuni, syujetlarining rang-barangligi bilan ajralib turadi va shak-shubxasiz badiiy qiymatga ega bo'lgan asarlardir.

Manchjuriyaga qarshi kurash va vatanparvarlik XVI asrda xayotning turli jabxalaridagi feodal jabr-zulmiga qarshi munosabat sifatida yuzaga kelgan va XVII asrning ikkinchi yarmiga kelib o'z cho'kqisiga ko'tarilgan ma'rifatchilik xarakatining ajralmas qirrasiga aylandi. Manchjuriyalik ilk podshohlar xitoy ziyolilariga nisbatan ikki yoqlama siyosat olib bordilar. Sin sulolasi vakillariga xayrixoh bo'lmagan, feodal jamiyat negizlari va uning mafkurasini tanqid qilgan odamlardan shafkatsiz o'ch olgan xolda, ular ayni vaktida yozuvchilar, olimlarni o'z tomoniga og'dirishga, ularning faoliyatini o'ziga ma'qul tomonga yo'naltirishga xarakat qildilar. Xun Shen<sup>23</sup> ayni shu og'ir, ziddiyatlarga to'la davrda yashab ijod kildi, dramaturg sifatida shakllanishiga mashxur adabiyotchi Lu Fan-chao, shoir va olim Mao Syan-shular qo'lida ta'lim olganligida edi. Xun Shen, nafaqat drama janrida ijod qilgan, balki, she'riyatda «si» janrida she'rlar yozgan va zamondoshlari uning she'riyatini yuksak baholaganlar. Dramaturgning eng mashxur asarlaridan biri "Abadiy baxt qasri" asarining syujeti tan imperatori Min-xuan (VIII asr)ning kanizagi Yan guyfeyga bo'lgan muhabbati tarixi bayon etiladi. Bu syujet Tan davri shoiri Bo Juyining "Abadiy qayg'u" poemasida hamda yuan davri dramaturgi Bay Puning "Chinorlarda yomg'ir" dramasida qo'llanilgan. Bu asarlardagi bosh obraz Yan Guyfey xarakteri biroz yengiltabiat sifatida tasvirlangan bo'lib, mamlakatga baxtsizlikning kirib kelishida ayblanadi. Xun Shenning "Abadiy baxt qasri" dramasida ularning asarlaridagi ba'zi motivlarni qo'llagan bo'lsada, bosh ayol obrazi umuman olganda oliyjanob ayol, his tuyg'ularga boy sifatida tasvirlangan. Dramaturg Bay Puning "Chinorlarda

literatura. Ocherki po istorii kitayskoy literaturi. M., Goslitizdat. 1956; «Shitszin» i yego mesto v kitayskoy literature. M., IVL. 1958; Guan Xan-sin — velikiy dramaturg Kitaya. M., Znaniye. 1958; Yaponskiye zapisi. M., Sov.pisatel. 1966; Problemi issledovaniya kitayskoy literaturi. M., 1974; Drevniye pamyatniki kitayskoy literaturi. M., Nauka. 1978; Kavabata Yasunari: Ocherk. M., Sov.pisatel. 1978; Kitayskoye literaturnoye naslediye i sovremennost. M., 1981; Syuy Yuan. Istoki i problemi tvorchestva. M., Nauka. 1986; Izbrannie proizvedeniya. V 2 t. M., 1987; Fedorenko N. T., Sokolskaya L. I. Aforistika. M., Nauka. 1990. kabi kitoblar muallifi

<sup>23</sup> Xun Shen (1645 - 1704)Chjetsyanning janubi-sharqidagi dengiz bo'yida joylashgan viloyatda manchjurlar bosqini davrida dunyoga kelgan. Bir necha she'riy to'plamlari va 10 yaqin pesalar muallifi.

yomg'ir" dramasi fojeali yakun topgan bo'lsa, Xun Shen "Abadiy baxt qasri" dramasi qadimgi afsonaga murojaat etgan xolda asarni ijobiy yakunlaydi.

XVII asrning ikkinchi yarmida xitoy dramaturgiyasida muayyan jonlanish yuz bergan. O'sha davrda tarqalgan "Chuansi" janrida ko'p sonli asarlar yaratgan dramaturglar, shu jumladan xavaskor ijodkorlar paydo bo'lgan. Ko'pgina pesalarda chet ellik bosqinchilar asosan niqob ostida qoralangan, (masalan, xitoy xalqining Jurjenlarga qarshi qurashi tavsiflangan); milliy manfaatlarni toptab, istilochilar tomonga o'tgan xoinlar qoralangan; o'sha davrda xukm surgan konfutsiychilik axloqiga karshi norozilik ohanglari yangragan; his-tuyg'ular, sevgi erkinligi kuylangan; ayollarning aqli va fidoyiligiga tahsinlar aytilgan. Ayrim asarlarda o'sha davrdagi xayotning salbiy tomonlari, chunonchi, amaldorlarning poraxo'rliqi, davlat intixonlarida mansab mavqei suiste'mol qilish xollari, xalqning og'ir xayoti to'g'ridan-to'g'ri yoki niqob ostida tasvirlangan. Dramaturglar ko'pincha o'z burchiga sodiq bo'lgan oddiy odamlarni sharaflaganlar. Ma'rifatparvarlik ruxi bilan sug'orilgan xaqiqiy, voqelikni fosh qiluvchi asarlar bilan bir qatorda, konfutsiychilikning qotib qolgan aqidalarini targ'ib qiluvchi dramalar ham yaratilgan.

Bu davrning ko'zga ko'ringan dramaturglaridan biri Li Yuy<sup>24</sup> — komediyanavis, prozaik lirik va nazariyotchi; teatr

truppasi rejissyori. O'zining serkirra faoliyati uning «Xordikdagi o'ylar» asarida o'z ifodasini topdi. ( Bu asarning eng muxim bo'limlari XX asrda alohida risolalarga ajratildi. Shulardan biri — «Ayol hakida» risolasida u o'zining yangi inson idealini yaratdi. Bu risolani yaratishda u o'z truppasida aktrisalarni tayyorlash borasidagi katta tajribasiga tayandi.

U amalga oshirgan islohotda Yevropa teatrlaridagi islohotlarga bilan tipologik yaqinlik kuzatiladi. Ularning o'xshashligi shunda ko'rinadiki, Didro Deni, Lessing Gotxold Efraim kabi Li Yuy uchun ham teatr feodalizmga qarshi, demokratik g'oyalarni targ'ib qilish uchun minbar vazifasini bajaradi. Barcha ma'rifatchilar kabi, Li Yuy ham san'atning faol ijtimoiy rolini tan oladi, drama va komediyaning ma'rifiy ahamiyatini kayd etadi. Didro kabi Li Yuy yangi janr - komediyaning ilgari suradi, adabiyotda to'qima syujet uchun, realizm uchun kurash olib boradi. Lessing kabi u dramalar, aktyorlar ijrosi taxliligiga bag'ishlangan, nazariy umumlashmalarni o'z ichiga olgan tadqiqotini nashr ettiradi. Shu bilan birga improvizatsiya, andoza va qoliplardan voz kechishni ilgari suradi, chunki bu davrgacha yaratilgan barcha

<sup>24</sup> Li Yuy (李渔) XVII asr drama janri rivojida, dramaturgiya nazariyasi va saxna maxorati namoyandasi. "yangilik" uchun kurashni eng ommaviy san'at—teatr vositalari bilan davom ettirdi. U o'z faoliyatini Janubiy-Sharqdagi boy dengiz buyi shaharlari Xanchjou va Nankinda olib bordi. «Xantal doni kattaligidagi bog'» nashriyotining asoschisi.

dramatik asarlarda «ayni bir kahramonlar paydo bo‘lishiga, ayni bir voqealar yuz berishiga» e’tibor kuchli bo‘lgan. O‘z ijodida Li Yuy dramaturglarni tarixiy qahramon bilan bog‘liq voqealarni yuzaki namoyish etishdan voz kechib, insonlarning real xayotini tasvirlashga, ularning ichki dunyosiga e’tibor berishni talab qildi, u ilk bor ijodida «xarakter»ga, uning «o‘ziga xosligi va jozibadorligi»ga e’tibor berdi, g‘ayritabiiy syujetlarni rad etdi, teatrni yangilash, takomillashtirishga qaratilgan usullar va vositalarni targ‘ib qildi. Komediya va satiraga mustaqqil va badiiy jihatdan to‘laqonli janr sifatida qaradi. Umuman olganda, Li Yuy o‘zi uzoq yillar mobaynida amalga oshirgan islohotida dramatik asarlarning teatrbo‘pligiga erishishga, aktyorlik kasbini yuksak ijrochilik mahorati darajasiga ko‘tarishga va teatr san’atining bu ikki jihatini muallifning yagona g‘oyasiga muvofiq yaratilgan spektaklda birlashtirishga xarakat qildi. Dramaturgiyada bu davrga kelib yangi janrlarning paydo bo‘lishi tufayli asarlarning ichki tuzilishlari biroz yengil shaklga keltirilgan bo‘lsada, kuchli, teran mavzular ko‘tarilgan. Albatta, o‘rta asr uslubidagi syujetlar, g‘oyalar, xarakterlar davom etgan, lekin sekin-asta o‘zlashtirish uslublariga qarshi kurash boshlangan edi.

XVII asr Xitoy adabiyoti tarixida “kech o‘rta asr” adabiyotidan “yangi davrga o‘tish davri” deb yuritiladi. Biroq XVI asrning ikkinchi yarmida boshlangan adabiy jarayonlardagi o‘zgarishlar Xitoyda XX asrning boshlarigacha davom etgan.

### **XULOSA.**

Xulosa qilib aytganda, atrofdagi voqelikning keskin ziddiyatlari, uzoq va yaqin o‘tmish voqealari, Daos va Budda afsonalari, xalq afsonalari shaharlardagi ko‘plab teatr sahnalarida va qishloq ibodatxonalaridagi sahna joylarida jonli tasvirlarda o‘z ifodasini topdi.

Tarixiy asarlar, badiiy qissa va ommabop hikoyalar to‘plamlari, falsafiy masallar, taniqli shoirlarning she’rlari - bularning barchasi dramaturglarning ijodiy tasavvurlari uchun manba bo‘lib xizmat qilgan, ko‘pincha boshqa janrlarda yangi asarlar manbai bo‘lib kelgan.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. 中国现代文学史。1917-1997。北京/2008。
2. 中国戏剧史、北京、2015
3. Abdusamatov H. Drama nazariyasi. G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 2000 y.